



TURIZM INFRATUZILMASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY MANBALAR TAHLILI

Raximova Umida Ziyadullayevna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0008-9115-0843

raximovaumida2018@gmail.com

Annatsiya. Ushbu maqola turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishda asosiy manbalar tahliliga bag'ishlangan. Turizm infratuzilmasi mamlakatlar iqtisodiyoti va xalqaro imidjini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada raqamli platformalar va mobil ilovalar, IoT (Internet of Things) texnologiyalari, moliyaviy manbalar, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimlari, hamda tashkiliy manbalar kabi turizm infratuzilmasining innovatsion rivojlantirishdagi asosiy omillar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. turizm infratuzilmasi, innovatsion rivojlanish, raqamli platformalar, mobil ilovalar, IoT (Internet of Things), davlat investitsiyalari, ta'lim va kadrlar tayyorlash, xalqaro grantlar va kreditlar, turizm xizmatlari, turizm siyosati.

АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ РЕСУРСОВ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ТУРИСТСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Рахимова Умида Зиядуллаевна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. Данная статья посвящена анализу основных ресурсов инновационного развития туристской инфраструктуры. Туристическая инфраструктура играет важную роль в улучшении экономики и международного имиджа стран. В статье рассмотрены основные факторы инновационного развития туристической инфраструктуры, такие как цифровые платформы и мобильные приложения, технологии IoT (Интернет вещей), финансовые ресурсы, системы образования и обучения, а также организационные ресурсы.

Ключевые слова. инфраструктура туризма, инновационное развитие, цифровые платформы, мобильные приложения, IoT (Интернет вещей), государственные инвестиции, образование и обучение, международные гранты и кредиты, туристические услуги, туристическая политика.

ANALYSIS OF THE MAIN RESOURCES FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE

Rakhimova Umida Ziyadullayevna

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *This article is devoted to the analysis of the main resources in the innovative development of tourism infrastructure. Tourism infrastructure plays an important role in improving the economy and international image of countries. The article considers the main factors in the innovative development of tourism infrastructure, such as digital platforms and mobile applications, IoT (Internet of Things) technologies, financial resources, education and training systems, and organizational resources.*

Key words: *tourism infrastructure, innovative development, digital platforms, mobile applications, IoT (Internet of Things), public investment, education and training, international grants and loans, tourism services, tourism policy.*

Kirish.

Turizm sektori mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston kabi davlatlar uchun turizm sohasini rivojlantirish nafaqat daromad manbai, balki milliy imidj va xalqaro aloqalarni mustahkamlash vositasi hamdir. Ayniqsa, Samarqand kabi tarixiy shaharlarda turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalar tahlil qilinadi va Samarqand misolida bu jarayonning natijalari muhokama qilinadi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, texnologiyalarni joriy etish, markaziy shaharlar va turistik maydonlarni rivojlantirish, shuningdek, turizmga yo'naltirilgan xizmatlar va infrastrukturani takomillashtirishga qaratilgan harakatlar keng qamrovli davom etmoqda. Masalan, 2020 yilning oxiri va 2021 yilning boshlarida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qo'lga kiritilgan "O'zbekiston turizmi 2030" strategiyasini e'lon qildi. Bu strategiya, turizm sohasini yanada rivojlantirish, mamlakatning turizm potentsialini oshirish va global sayohatchilarni jalb qilish maqsadida yaratilgan kompleks tadbirlar to'plamidir. Strategiya, markaziy shaharlar, ma'mur shaharlar va qishloq xo'jaligining turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm xizmatlarini sifatini oshirish, texnik vositalar va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, turizmning barcha turlarini rivojlantirishni uchun tanlangan qadamlar kabi ko'plab muhim masalalarni o'z ichiga oladi (Mirziyoev, 2021).

Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish ko'p jihatdan turli manbalar va omillarga bog'liq. Innovatsion texnologiyalar, moliyaviy resurslar, malakali kadrlar tayyorlash va samarali boshqaruv tizimi ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

1. Texnologik yangiliklar. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Raqamli platformalar va mobil ilovalar turistlarga qulaylik yaratish, yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot olish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. IoT (Internet of Things) texnologiyalari orqali aqlli shaharlar va mehmonxonalar konsepsiyasi amalga oshiriladi, bu esa turistlar uchun qulaylik va xavfsizlikni ta'minlaydi¹².

2. Moliyaviy manbalar. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda moliyaviy manbalar asosiy rol o'ynaydi. Davlat va xususiy sektor investitsiyalari, shuningdek, xalqaro grantlar va kreditlar bu jarayonda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston hukumati tomonidan Samarqand viloyatida turizm loyihalariga katta mablag' ajratilmoqda. Shu bilan birga, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilgan grantlar va kreditlar turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda¹³.

¹² <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>

¹³ <https://glosema.group/news/exploring-the-tourism-and-infrastructure-potential-of-samarkand-at-the-investment-forum>

3. Ta'lim va kadrlar tayyorlash. Turizm sohasini rivojlantirishda malakali kadrlarning roli katta. Maxsus o'quv dasturlari va kurslar, xalqaro tajriba almashinuvi dasturlari orqali turizm sohasida ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash zarur. Samarqanddagi ta'lim muassasalari turizm va mehmondo'stlik sohasida malakali kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor bermoqda¹⁴.

4. Tashkiliy manbalar. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda samarali boshqaruv tizimi zarur:

Davlat idoralari va tashkilotlari: Turizmni rivojlantirish uchun maxsus tashkilotlar va agentliklar faoliyati.

Xususiy sektor bilan hamkorlik: Davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali turizm infratuzilmasini yanada samarali rivojlantirish.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish mavzusi so'nggi yillarda ko'plab xorijlik va mahalliy tadqiqotchilari va mutaxassislardan tomonidan keng o'rganilib kelmoqda. Ular ilmiy asarlari va ilmiy xulosalarida tadqiqot mavzusi bo'yicha yondoshuvlarini, ilmiy fikr-mulohazalarini bayon etishgan. Jumladan,

Buyuk Britaniyalik iqtisodchi Buhalis (2019). "Technology in tourism: Opportunities and challenges". Ushbu asarda raqamli texnologiyalar va ularning turizm sohasiga ta'siri keng yoritilgan. Buhalis raqamli platformalar va mobil ilovalarning sayyohlar tajribasini qanday o'zgartirayotganini tahlil qiladi.

Gretzel, Sigala, Xiang, & Koo (2015) tadqiqotchilar esa aqlli turizm konsepsiyasini va IoT texnologiyalarining turizm infratuzilmasidagi ahalimatini o'zlarining tadqiqot ishlarida ochib bergan.

Serbiyalik olim Jovicic (2019) tomonidan yozilgan "From the traditional understanding of tourism destination to the smart tourism destination" maqolasida aqlli shaharlar va ularning turizm infratuzilmasiga ta'siri o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda aqlli shaharlar konsepsiyasining turizm sohasiga qanday ta'sir qilishi, turizm infratuzilmasining rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali turizmni yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Yangi Zelandiya universiteti professori Hall (2008) tomonidan yozilgan "Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships" asarida davlat investitsiyalari va turizm infratuzilmasini rejalashtirishdagi rolini tahlil qilinadi. Kitob turizm siyosati, rejalashtirish jarayonlari va davlatning turizmni rivojlantirishdagi ishtiroki haqida batafsil ma'lumot beradi.

UNWTO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizm Bo'limi) tomonidan 2018 yilda nashr etilgan "Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030" hisoboti xalqaro moliya institutlarining turizm infratuzilmasiga qo'shayotgan hissasini o'rganadi. Hisobotda quyidagi asosiy mavzular ko'rib chiqiladi:

- Barqaror Rivojlanish Maqsadlari: Turizm sohasining BMT ning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) bilan qanday bog'liqligi va ularni amalga oshirishdagi roli.

- Xalqaro Moliya Institutlari: Turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi xalqaro moliya institutlarining hissa qo'shishi va ularning loyihalarga qo'shgan moliyaviy resurslari.

- Samarali Strategiyalar: Turizm sektorida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun samarali strategiyalar va yondashuvlar.

Hisobot BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan strategik rejalarda turizmning o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi (UNWTO, 2018).

Avstraliyalik olimlar Dredge, & Jenkins, (2007) tomonidan yozilgan "Tourism Planning and Policy" kitobida davlat idoralari va ularning turizmni rejalashtirishdagi roli o'rganiladi. Kitob turizm siyosati, rejalashtirish jarayonlari, strategiyalar va turizmning barqaror rivojlanishi haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

¹⁴ https://samarkand.uz/en/about_region/general_information

Kanadalik yana bir iqtisodchi olim William Kerr (2003) tomonidan yozilgan "Tourism Public Policy, and the Strategic Management of Failure" kitobida turizm siyosati va turizm infratuzilmasini boshqarish tahlil qilingan. Ushbu kitob turizmni boshqarishdagi muvaffaqiyatsizliklar, ularni oldini olish va strategik boshqarish usullari haqida keng ma'lumot beradi.

Mamlakatimiz ilmiy tadqiqotchilari ham bu sohada jadal izlanishlar olib bormoqda. Masalan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) olimi Dr. Dilmurod Karimov smart turizm va IoT texnologiyalarini turizm sohasida qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Uning tadqiqotlari aqlli shaharlar va aqlli mehmonxonalar konsepsiyasini amalga oshirishga qaratilgan.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimi Dr. Gulnora Rakhimova esa turizm sohasida raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Uning ishlari turistlarga qulaylik yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan.

Yana bir ilmiy tadqiqotchi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti olimi Prof. Anvar Hasanov turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy manbalarni optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Uning tadqiqotlari davlat va xususiy sektor investitsiyalari, xalqaro grantlar va kreditlar orqali turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganadi.

Yuqorida keltirilgan manbalar shuni ko'rsatadiki, turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish uchun turli sohalar va omillar zarur. Ushbu adabiyotlar tahlili orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishish uchun kompleks yondashuv va innovatsion manbalardan foydalanish zaruriyati oydinlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishni optimallashtirish masalalari ekonometrik modellashtirish apparati yordamida hal etiladi. Bu yerda masalaning juda keng qamrovli ekanligi hisobga olinsa, ko'p sonli tadqiqot usullaridan foydalanish zarurati mavjudligini bilish mumkin. Hususan, ekonometrik modellashtirish natijalarining samaradorligi, ishonchliligi va aniqligi ko'rib chiqilayotgan obyektning maqsadga muvofiq tahlillari to'g'ri olib borilganligiga bevosita bog'liq bo'ladi (Usmonova, 2021). Demak, bu yerda tahlil usullarini jarayonga mos to'g'ri tanlash lozim. Ushbu mulohazalar uslubiy yondoshuvlarning farqlanishi va to'g'ri tadbiiq etilishining muhimligiga ishora qiladi (Kerr, 2003). Tadqiqotimiz davomida turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalarini tushuntirishda, tavsiflovchi ko'rsatkichlarni bir tizimga keltirishda deduktiv yondoshuvdan, turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalarining hududiy farqlanish xarakterini ochib berishda taqqoslama tahlil usulidan, turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalari sifatida qabul qilingan ko'rsatkichlar tendensiyasini baholashda statistik kuzatish usulidan, tendensiyalar o'zgarishida o'zaro o'xshashlik, aksincha tafovut testlarini o'tkazishda tashxisli tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Samarqand viloyati O'zbekistonning eng muhim turistik yo'nalishlaridan biri bo'lib, boy tarixiy va madaniy merosga ega. Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish ushbu hududning jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tahlil Samarqand viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi asosiy manbalarni va ularning natijalarini o'rganishga qaratilgan.

Innovatsion texnologiyalar turizm infratuzilmasini rivojlantirishda eng muhim omillardan biridir.

Raqamli platformalar va mobil ilovalar turizm infratuzilmasini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Ular turistlarga qulaylik yaratish, yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot olish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Masalan, *Bron qilish*: Sayyohlar mehmonxonalarni, aviachiptalarni, avtomobillarni ijaraga olish va turli turlarni onlayn ravishda bron qilishlari mumkin. Bu xizmatlar nafaqat qulaylik yaratadi, balki sayyohlarga vaqt va pul tejash imkoniyatini ham beradi. Bu xizmatlarga Booking.com, Airbnb, Expedia va Agoda kabi platformalar kiradi.

Yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot olish: Sayyohlar turli manzilgohlar haqida batafsil ma'lumot olish uchun raqamli platformalardan foydalanishadi. Google Maps, TripAdvisor va Yelp kabi ilovalar sayyohlarga restoranlar, diqqatga sazovor joylar va boshqa xizmatlar haqida ma'lumot beradi, shuningdek, boshqa foydalanuvchilarning sharhlari va tavsiyalarini o'qish imkoniyatini taqdim etadi.

To'lovlarni amalga oshirish: Mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati sayyohlarga yanada qulaylik yaratadi. PayPal, Apple Pay, Google Wallet va boshqa elektron to'lov tizimlari sayyohlarga xavfsiz va tezkor to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Qo'shimcha xizmatlar: Ko'plab platformalar qo'shimcha xizmatlarni ham taklif etadi, masalan, turli tillarda tarjima, yo'nalishlarni navigatsiya qilish, mahalliy voqealar va tadbirlar haqida ma'lumot olish kabi xizmatlar (Buhalis, 2019).

IoT texnologiyalari turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. IoT orqali aqlli shaharlar va aqlli mehmonxonalar konsepsiyasi amalga oshiriladi va bu orqali sayyohlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratiladi. IoT texnologiyalari yordamida aqlli xona boshqaruv tizimlari joriy etiladi. Bu tizimlar orqali mehmonlar xonadagi yorug'lik, havo harorati va xavfsizlik tizimlarini mobil ilovalar orqali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu texnologiyalar orqali yana shahar infratuzilmasi, transport tizimlari va xavfsizlik tizimlari samarali boshqariladi. Masalan, aqlli transport tizimlari yo'l harakati ma'lumotlarini real vaqt rejimida kuzatib boradi. Bu esa mehmonlar uchun yuqori darajada qulaylik va xavfsiz sharoit yaratadi, shu bilan birga mehmonxona xizmatlarini yanada samarali boshqarish imkonini beradi (Gretzel, Sigala, 2015). O'zbekistonda IoT texnologiyalari rivojlanish bosqichida bo'lib, turli sohalarda qo'llanilmoqda. Qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va uy-joy kommunal xizmatlarida IoT texnologiyalarining joriy etilishi samaradorlikni oshirish va resurslardan yanada oqilona foydalanish imkonini bermoqda. Ushbu yo'nalishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor investitsiyalari IoT texnologiyalarining yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shadi¹⁵.

Raqamli platformalar va IoT texnologiyalari turizm sohasini yanada qulay, xavfsiz va samarali qiladi. Ularning joriy etilishi sayyohlar tajribasini yaxshilash va turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishda katta hissa qo'shadi.

Moliyaviy manbalar turizm infratuzilmasini yaxshilash va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun zarur resurslarni ta'minlaydi va bu manbalar turli sohalardan kelib chiqadi, jumladan davlat investitsiyalari, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro grantlar va kreditlar.

O'zbekiston hukumati Samarqandda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi turistik joylarni rivojlantirish va mavjud ob'ektlarni yaxshilash uchun sarflanmoqda. Masalan, Aeroport yangi loyihalari uchun: Samarqand xalqaro aeroporti yangilandi va xalqaro aviaqatnovlar uchun cheklovlar olib tashlandi. Bu aeroport kuniga 20 ta reys qabul qilish va yillik 1.5 million turistga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi; yo'llarni va transport infratuzilmasini yaxshilash uchun: Samarqanddagi yo'llar va transport tizimi modernizatsiya qilinmoqda, bu esa turistlar uchun yaxshi qulaylik yaratadi.

¹⁵ <https://gov.uz/digital/> va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasidagi yangiliklari va hisobotlari

Xususiy sektor ham turizm rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Xususiy kompaniyalar mehmonxonalar, restoranlar va boshqa turistik obyektlarga investitsiyalar kiritmoqda. Samarqandda 2023 yilda 162 mehmonxona, 81 hostel va 350 oilaviy mehmon uylari faoliyat ko'rsatdi. Bu xizmat ko'rsatish joylari soni avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Xususiy sektor investitsiyalari orqali yangi restoranlar, kafelar va boshqa xizmat ko'rsatish joylari ochilmoqda. Bu esa turistlar uchun turar joy tanlash va ovqatlanish imkoniyatlarini kengaytirdi¹⁶.

Xalqaro grantlar va kreditlar: Xalqaro moliya institutlari Samarqandda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratilayotgan grantlar va kreditlar Samarqanddagi turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun muhim rol o'ynaydi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda malakali kadrlarning roli katta:

Maxsus o'quv dasturlari va kurslar: Samarqand shahridagi universitetlar, akademiyalar va o'quv markazlari turizm sohasidagi mutaxassislikni o'rgatish uchun maxsus o'quv dasturlari va kurslar tashkil etishadi. Bu dasturlar turizm boshqaruvini, marketing, soha iqtisodiyoti, musiqa, tarix, arxitektura va boshqa sohalarda malakani oshirish uchun mo'ljallangan. O'quv jarayonida amaliy ishlab chiqish, kasblar orqali o'quv tajribasini oshirish va xar-xil turdagi amaliyotlar tashkil etiladi.

Xalqaro tajriba almashinuvi: Samarqand shahridagi ta'lim muassasalari xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qilish orqali o'quvchilarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlashga yordam beradi. Bu jarayonda xalqaro o'quvchilarni almashtirish, tanlov va ta'lim uslublarini amalga oshirish, chet tillarida muloqotni o'rganish va o'quv kurslari o'tkazish va xalqaro seminarni tashkil etish kabi chet el tajribasiga ega bo'lish zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (State Committee for Tourism Development of the Republic of Uzbekistan) Samarqand viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha turli loyihalarni amalga oshirishda katta o'rin o'rnashgan tashkiliy manbalardan biridir. Bu qo'mita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining direktivi va strategiyalari asosida turizm sohasini rivojlantirish, turistik ob'ektlarni modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro bozorlarda O'zbekistonni o'ziga xos turizm manzarali mamlakat qilish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Xususiy sektor bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkoniyati Tour Central Asia tashkiloti tomonidan yaratilmoqda. Bu tashkilot Samarqand va umuman O'zbekiston bo'yicha turizm sohasida tajribani almashish, xorijiy investorlarni jalb qilish, yangi turizm ob'ektlarini o'tkazish, xalqaro standartlarga mos turizm xizmatlarini taqdim etish va xalqaro bozorlarda O'zbekistonning obrazini oshirish bilan shug'ullanadi. Ular Samarqand shahri va uning atrofidagi turizm infratuzilmasini rivojlantirishda strategik partnyorlar sifatida faoliyat ko'rsatish orqali turizmning rivojlanishini ta'minlashda katta o'rin egallagan¹⁷.

Xulosa va takliflar.

Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar, moliyaviy resurslar va kadrlar tayyorlash tizimlari turizm sohasining samarali rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Samarqand misolida ko'rib chiqilgan turizm infratuzilmasining rivojlanishi quyidagi asosiy jihatlar orqali amalga oshirilmoqda:

Raqamli platformalar va mobil, davlat investitsiyalari, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro grantlar va kreditlar turizm infratuzilmasini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu moliyaviy manbalar orqali yangi mehmonxonalar, restoranlar, transport tizimlari va boshqa

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy web-sayti ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/>

¹⁷ <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>

turistik obyektlar barpo etilmoqda. Turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, maxsus o'quv dasturlari va xalqaro tajriba almashinuvi dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. Bu kadrlar turizm xizmatlarini yanada sifatliroq qilishga yordam beradi. Davlat idoralari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maxsus tashkilotlar va agentliklar turizm sohasini qo'llab-quvvatlash uchun turli loyihalarni amalga oshirmoqda.

Turistlar tajribasini yanada yaxshilash va xizmat ko'rsatishni optimallashtirish uchun raqamli platformalar va IoT texnologiyalarini kengroq joriy etish kerak. Shuningdek, AR (kengaytirilgan reallik) va VR (virtual reallik) texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish turistlar uchun yangi tajribalar yaratadi. Davlat va xususiy sektor investitsiyalarini yanada ko'paytirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali yangi turizm loyihalarini amalga oshirish kerak. Bu borada xususiy sektor investitsiyalariga soliq imtiyozlari va boshqa qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishi mumkin. Turizm sohasida ishlaydigan mutaxassislarning malakasini oshirish uchun maxsus treninglar, xalqaro tajriba almashinuvi dasturlari va o'quv markazlarini tashkil etish zarur. Bu borada xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish orqali malakali kadrlarni tayyorlash mumkin. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda ekologik barqarorlikni ta'minlash zarur. Bu borada yashil energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza transport tizimlarini joriy etish muhim. Samarqandning xalqaro miqyosdagi imidjini oshirish uchun keng ko'lami marketing va targ'ibot kampaniyalarini amalga oshirish kerak. Bu borada ijtimoiy tarmoqlar, xalqaro sayyohlik yarmarkalari va media kampaniyalardan foydalanish mumkin. Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali Samarqandning turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish va uni xalqaro miqyosda jozibador turistik manzilga aylantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Mirziyoev Sh.M. (2021) *Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobi*. -T.: "O'zbekiston" nashriyoti, -464 b.

Buhalis D. (2019), "Technology in tourism-from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism: a perspective article", *Tourism Review*, Vol. 75 No.1, pp. 267-272. <https://doi.org/10.1108/TR-06-2019-0258>

Gretzel U., Sigala M., Xiang, Z., & Koo C. (2015) "Smart tourism: Foundations and developments", *Electronic Markets*, 2015-yilning Vol. 75 No.3. <https://link.springer.com/article/10.1007/s12525-015-0196-8>.

Jovicic, D. Z. (2019), "From the traditional understanding of tourism destination to the smart tourism destination", *Current Issues in Tourism*, Vol. 22 No.3, 276-282-betlar. <https://doi.org/10.1080/13683500.2017.1313203>

Hall C. M. (2008). "Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships". ISBN 10: 0132046520 ISBN 13: 9780132046527.

UNWTO (2018) (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizm Bo'limi). "Tourism and the Sustainable Development Goals - Journey to 2030" <https://sdg.iisd.org/news/unwto-undp-report-explores-role-of-tourism-in-sdg-implementation/>

Dredge D., & Jenkins J. (2007). *Tourism Planning and Policy*. John Wiley & Sons. ISBN: 978-0470807767. <https://archive.org/details/tourismplanningp0000dred>

Kerr W. R. (2003). *Tourism Public Policy, and the Strategic Management of Failure*. Pergamon. ISBN: 9780080442006. <https://archive.org/details/tourismpublicpol0000kerr/page/n1/mode/2up>

Usmonova N. (2021). "Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llashning ekonometrik tahlili." *Innovatsion Tadqiqotlar Jurnali*, 6(3), 78-92. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1002>